

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi**

**vaziri, “Ilk qadam (IQ) jurnali
tahririyati” davlat unitar
korxonasi muassisi**



E.G.Karimova

2025-yil “ 1 ”-dekabr

**“Ilk qadam (IQ) jurnali tahririyati” davlat unitar korxonasi
muassisining navbatdan tashqari yig‘ilishi
36-sonli BAYONI**

Raislik qiluvchi:

E.G.Karimova - O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri,
“Ilk qadam (IQ) jurnali tahririyati” davlat unitar
korxonasi muassisi, davlat ulushi 100 foiz

Ishtirok etganlar:

T.Komilov - Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining o‘rinbosari

O.Raxmatillayev - Strategik rivojlantirish,
xalqaro reytinglar va Jahon savdo tashkiloti
masalalari bilan ishlash boshqarmasi boshlig‘i,
kotib

O.Hoshimov - Ichki audit departamenti
direktori

Sh.Mamadiyarov - Yuridik boshqarma
boshlig‘i o‘rinbosari

J.Mamasoliyev - “Ilk qadam (IQ) jurnali
tahririyati” davlat unitar korxonasi direktori
vazifasini vaqtincha bajaruvchi

KUN TARTIBI:

**“Ilk qadam (IQ) jurnali tahririyati” davlat unitar korxonasini tugatish
to‘g‘risida.**

*(Karimova, Komilov, Raxmatillayev, Hoshimov, Mamadiyarov, Mamasoliyev, ...,
Karimova)*

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 9-oktabrdagi 125-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ilk qadam (IQ) jurnali tahririyati" davlat unitar korxonasi (keyingi o'rinlarda - DUK) Ustavining 1.1-bandiga muvofiq, "Ilk qadam (IQ) jurnali tahririyati" DUKning yagona muassisi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hisoblanadi.

Ustavning 6.1. bandiga ko'ra muassis yig'ilishi — DUKning oliy boshqaruv organidir. Shu munosabat bilan muassisning umumiy yig'ilishi kворumga ega deb e'tirof etiladi.

Ustavning 10.1. bandiga asosan DUK muassis qaroriga ko'ra qonunchilik hujjatlarda nazarda tutilgan tartibda tugatilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 542-sonli qaror bilan tasdiqlangan Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarni tugatish tartibi to'g'risidagi nizomning 5-bandiga muvofiq, yuridik shaxslarni ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi qaror uning ta'sis hujjatlarida shunga vakolat berilgan yuqori organi tomonidan qabul qilinadi.

Qarorda quyidagilar ko'rsatiladi:

tugatilayotgan yuridik shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (to'liq va qisqartirilgan nomi, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, pochta manzili);

tugatuvchi haqidagi ma'lumotlar (pasport ma'lumotlari, telefon raqami va elektron pochta manzili);

yuridik shaxsni tugatish sababi va mo'ljallanayotgan tugatish muddati.

Kun tartibidagi masala yuzasidan DUK direktori v.v.b. J.Mamasoliyevning hisoboti eshitildi. U so'zida jurnal 2024-yil aprel oyidan ishlamasligi, xodimlarning barchasi bilan mehnat shartnomalari bekor qilinganligi, faqat yakka o'zi faoliyat olib borayotgani, jurnal faoliyatini tiklash imkoniyatlari mavjud emasligini ta'kidlab, DUKni tugatish to'g'risida qaror qabul qilinishini so'radi.

Ichki audit departamenti direktori O.Hoshimov jurnalning moliya-buxgalteriya hujjatlari ichki audit nazoratidan o'tkazilganligi, jurnal faoliyat yuritmayotgani, xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalari bekor qilinganligi, debitorlik va kreditorlik qarzlari mavjudligi, jurnal chop etilmaganini ta'kidlab o'tdi

Yuridik boshqarma boshlig'i o'rinbosari Sh.Mamadiyarov bugungi kun holatiga ko'ra DUKning faoliyati batamom to'xtatilganligi, ichki audit nazorati o'tkazilganligi, ishchi xodimlar bilan mehnat shartnomalari bekor qilinganligi, jurnal chop etishga

moliyaviy imkoniyatlar mavjud emasligini aytib, DUKni tugatish to'g'risida muassisning qarorini qabul qilish zarurligini e'tirof etdi.

Bayon etilganlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 53-55-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 542-sonli qaror bilan tasdiqlangan Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarni tugatish tartibi to'g'risidagi nizomga, shuningdek, DUKning 2024-yil aprel oyidan boshlab jurnal chop etmayotganligi, ustavining maqsad va vazifalari bo'yicha faoliyat ko'rsatmayotganligi, uning faoliyatini tiklash imkoniyatlari mavjud emasligi inobatga olinib, DUKning oliy boshqaruv organi bo'lgan muassis yig'ilishi **qaror qiladi:**

1. Yuridik manzili — Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 64-uy manzilida joylashgan, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami 305139161, davlat ulushi 100 foiz bo'lgan DUK **ixtiyoriy tartibda tugatilsin**. Tugatish ishlarini olib borish uchun 6 (olti) oy muddat belgilansin.

2. DUKning tugatish komissiyasi raisi va tugatuvchisi etib T.Komilov tayinlansin.

3. "Ilk qadam (IQ) jurnali tahririyati" davlar unitar korxonasini tugatish komissiyasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tugatish komissiyasi (T.Komilov)ga:

DUK tugatilishi haqida qaror qabul qilinganidan so'ng bu haqida uch kun muddatda ro'yxatga oluvchi organlarni yozma yoki elektron shaklda xabardor qilish hamda ommaviy axborot vositalarida e'lon berish;

DUKning mol-mulklari, huquq va majburiyatlarini xatlovdan o'tkazish va ro'yxatini shakllantirish, kreditorlik qarzlarni qoplash uchun sotuvga chiqarish, kreditorlar bilan hisob-kitoblarni yakunlash, sotilmagan aktivlarni muassishga topshirish shuningdek debitorlik qarzdorliklarni undirish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur bayonning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari T.Komilov zimmasiga yuklatilsin.

**Strategik rivojlantirish,
xalqaro reytinglar va Jahon savdo
tashkiloti masalalari bilan ishlash
boshqarmasi boshlig'i, kotib**



O.Raxmatillayev